Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 82
FILOLOGIYA

MALIKA MIRZO QIZI ASARLARINING LINGVOPOETIK ASPEKTDA O'RGANILISHI

Mashhuraxon Tavakkalovna Nishanbayeva*
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchi (Farg'ona shahar 37-umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi)
✉ mnishanbayeva1@xn–gmil-63d.xn–cm-fmc

ANNOTATSIYA

"Malika Mirzo qizi she'rlarining lingvopoetik aspektda o'rganilishi" mavzusida yozilgan ushbu maqolada tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlaridan biri bo'lgan Lingvopoetikada badiiylik va til munosabati, ularning badiiy matn uchun ahamiyati haqida so'z yuritilgan. Bu mavzu ijodkor Malika Mirzo qizi she'rlari misolida tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar

lingvopoetika, she'riy matn, badiiylik, ijodkor, badiiy matn, uslub, obraz, mahorat, ta'sir, tahlil, tadqiq.

DOI: 10.5281/zenodo.21743406

Kirish.

Badiiy ijod – insoniyat ma'naviy va intellektual taraqqiyotining yuksak ko'rinishlaridan biri bo'lib, u borliqni, insoniy kechinmalar hamda ruhiy tebranishlarni til vositasida qayta yaratish, estetik idrok etish jarayonidir. Har qanday badiiy asar, avvalo, ijodkorning borliqni idrok etish usuli, dunyoqarashi, estetik ideallari hamda lisoniy birliklar vositasida voqelikka bergan badiiy-falsafiy munosabatining mahsulidir. Shu ma'noda ijod faqatgina obyektiv voqelikni tasvirlash yoki uni aslicha aks ettirish emas, balki uni muallifning badiiy tafakkur mezonlari, estetik tajribasi asosida qayta yaratish jarayoni hisoblanadi. Ana shu murakkab estetik jarayonda til oddiy aloqa vositasi bo'lib qolmay, estetik ta'sirchanlikni yuzaga keltiruvchi, badiiy obrazli tafakkurni shakllantruvchi hamda muallifning individual uslubini namoyon etuvchi asosiy lingvopoetik va ekspressiv manba vazifasini bajaradi. Badiiy matnni aynan mana shu rakursda – til va badiiy tafakkur sotsiumidagi estetik hodisa sifatida tadqiq etish lingvopoetika sohasining bosh obyektidir. Lingvopoetik tahlil har bir ijodkorning, eng avvalo, uning tildan foydalanish mahorati, so'z tanlash va uni estetik faollashtirish san'ati, poetik leksikasi hamda individual uslubini belgilovchi lisoniy birliklar tutgan o'rni orqali baholashni nazarda tutadi. Shu nuqtayi nazardan "badiiy adabiyot tili va uslubi, yozuvchining individual uslubini o'rganish asar yaratilgan davr umumxalq tilining qudrati, ko'lami, imkoniyati, taraqqiyoti jarayoni, yozuvchining so'zdan foydalanish mahorati, til tasviriy vositalarining kuchi, estetik-emotsional qimmati singari masalalarni mavjud manbalar asosida o'rganishdir."[1]Ushbu qarash badiiy matn tahlilida "adabiy til – badiiy til – jonli xalq tili" o'rtasidagi uchlik munosabatini to'g'ri anglashda metodologik tayanch vazifasini o'taydi. Zero, badiiy til va individual uslub havoda paydo bo'lmaydi; u umumxalq tili resurslaridan ozuqa oladi hamda adibning estetik suzgichidan o'tib, adabiy tilni yangi ma'no va jilolar bilan boyitadi. Natijada ushbu uch lisoniy sath doimiy aylanma harakatda bir-birini to'ldirib boradi. Bu esa lingvopoetik tahlilda individual uslubni alohida ajratilgan

[1]Т. Қурбонов. Тарихий бадиий асар ва давр тили масалалари. Монография. – Тошкент: збекистон Миллий энциклопедияси, 2006. 14-бет

holda emas, balki milliy til taraqqiyoti va uning cheksiz estetik-tasviriy imkoniyatlari bilan uzviy aloqadorlikda tadqiq etish zarurligini ko‘rsatadi.

Asosiy qism.

Shoir yoki yozuvchi borliqni passiv, shunchaki obyektiv kuzatuvchi emas, balki uni badiiy tafakkur orqali estetik idrok etuvchi va qayta talqin qiluvchi ijodkordir. U voqelikni mavjud holicha mexanik tasvirlamaydi, aksincha, o‘zining estetik ideali, hayotiy-ma’naviy tajribasi, ruhiy kechinmalari va falsafiy dunyoqarashi bilan uyg‘un holda badiiy shakllantiradi. Natijada badiiy matnda aks etgan har bir poetik obraz, har bir lingvistik detal, har bir so‘z muallifning ichki olamini, ruhiy dinamikasini va estetik funksiya bajaruvchi lisoniy birlik darajasiga ko‘tariladi.

O‘zbek adabiyotida she’riyat taraqqiyotining har bir bosqichi o‘ziga xos badiiy tafakkur egalari hamda uslubiy izlanishlar bilan xarakterlanadi. Davrlar va jamiyatdagi ma’naviy-ijtimoiy evrilishlar almashgani sayin she’riyatning mavzu doirasi, poetik ifoda imkoniyatlari, obrazlar tizimi va lisoniy birliklarining estetik vazifasi ham yangi-yangi qirralar kasb etib bordi. Ayniqsa, mustaqillik davri o‘zbek she’riyati inson ruhiyati, milliy o‘zlikni anglash, Vatanga muhabbat, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, ona va ayol timsolining ulug‘lanishi, tabiat va hayot falsafasini badiiy talqin etishning yangi, sifat bosqichlarini boshlab berdi. Bu davr she’riyatida shaxsning ichki olami, ruhiy kechinmalari hamda individual poetik tafakkuri badiiy ifodaning asosiy mezoniga aylandi. Natijada badiiy matnning lingvopoetik qurilishiga, lisoniy vositalarning matn hosil qiluvchi imkoniyatlariga bo‘lgan ilmiy va amaliy e’tibor tubdan kuchaydi. Bu davr shoirlari tilning tayyor, mavjud lisoniy imkoniyatlaridan foydalanish bilan cheklanib qolmay, uning semantik va ekspressiv doirasini kengaytirishga, yangi badiiy-estetik qirralari hamda poetik figuralarini namoyon etishga izchillik bilan intildilar.

Ana shunday ijodkorlar qatorida o‘zining betakror badiiy tafakkuri, samimiy poetik nafasi, milliy vafo va sadoqat konseptlarini nozik ifodalashi hamda individual uslubi bilan e’tibor qozongan shoiralardan biri Malika Mirzo qizidir. Shoira ijodi mustaqillik davri o‘zbek she’riyatining insonparvarlik g‘oyalari, milliy ruh va badiiy nafosatni uyg‘unlashtirgan o‘ziga xos va muhim yo‘nalishlardan birini tashkil etadi. Uning she’rlarida hayot voqeliklari quruq, yuzaki, tasvir sifatida emas, balki teran ruhiy mushohada va poetik idrok mahsuli sifatida gavdalanadi.

Malika Mirzo qizi Farg‘ona adabiy muhitining o‘ziga xos an’analarini o‘zida mujassam etgan, lisoniy estetikasi va badiiy tafakkuri bilan ajralib turuvchi yetuk ijodkorlardan biridir. U Farg‘ona viloyatida tavallud topgan bo‘lib, uzoq yillar mobaynida “Farg‘ona haqiqati” gazetasi hamda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida samarali faoliyat yuritgan. Ushbu ijtimoiy-adabiy faoliyat shoiraning so‘z ustida ishlash mahoratini oshirish bilan birga, uning lingvopoetik qiyofasini va individual uslubini shakllantirishda ham muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ijodkorning sermahsul qalamiga mansub bo‘lgan “Vodiy qo‘shiqlari”, “Dilxiroj”, “Saodatim”, “Tong va qalam”, “Dil yaprog‘i”, “Umrim yog‘dulari”, “Ko‘shkdagi oy”, “Umid manzaralari”, “Lutfona bitiklar” nomli she’riy to‘plamlari, shuningdek, “So‘nggi fojea”, “Oq buloq parizodi”, “Asaldan chiqqan asar” singari dramatik asarlari bugungi o‘zbek adabiyoti xazinasidan munosib o‘rin egallagan. Adabiyotshunoslik doirasida shoira ijodiga bag‘ishlangan turkum maqola va xotiralarda uning betakror samimiyligi, hayotiy voqelikni o‘tkir kuzatuvchanligi, inson ruhiy olamini nozik ilg‘ay olishi hamda milliy qadriyatlarga bo‘lgan yuksak sadoqati alohida e’tirof etiladi.

Jumladan O‘zbekiston xalq shoiri Turob To‘la shoira haqida shunday yozadi: “Malika she’rlarini anglamoq uchun Farg‘onani yaxshi bilmoq va suymoq kerak. Farg‘onani anglamoq uchun esa Malika she’rlariga quloq solmoq lozim…

Malikaning she’rlari nihoyatda milliy, nafis, teran. Ular jo‘shqin his bilan yozilgan.

Bu she’rlarning har biri o‘ziga xos hayot tarmog‘ini ifoda etgan bo‘ladi, falsafiy umumlashmalar qidiradi, topadi. Ularning rangida Farg‘ona rangini, ovozida go‘zal Farg‘ona ovozini, hatto qiyofasida Farg‘ona qiyofasini his qilasan kishi. Ularni allaqaylarda ko‘rgan, eshitgan bo‘lasan, topasan, quvonasan, zavqing toshadi…” [2]

Turob To‘laning ushbu e’tirofiga lingvopoetik nuqtayi nazardan yondashadigan bo‘lsak, mutafakkir adib shoira matnlaridagi lisoniy-hududiy o‘ziga xoslikni – Farg‘ona adabiy muhitiga xos sof leksik boylik

[2]Малика Мирзо қизи. Лутфона битиклар, Тошкент, Академнашр. 2019, 3-бет

va ohangdorlikni haqli ravishda ta'kidlamoqda. Haqiqatan ham, Malika Mirzo qizi o'z she'rlarida faqatgina so'z o'yinlariga berilmaydi, lirik qahramon ruhiyatini tasvirlashda hududiy kolorit (Farg'ona nafasi) va sof o'zbekona leksik qatlamdan unumli foydalanadi. Bu uning badiiy uslubi hududiy madaniyat negizida qat'iy poydevorga ega ekanligini, so'zlar sintagmatik qatorda o'zining butun ma'noviy va emotsional jozibasini to'liq namoyon eta olganligini ko'rsatadi.

Tilshunos Mamlakat Hoshimova ham Malika Mirzo qizining sirli va jozibador she'riyat olami haqida o'zning quyidagi fikrlarini bayon etgan: "Malika Mirzayeva she'riyat chamaniga o'ziga xos ovoz bilan kirib kelgan qalamkashlardan… Malikaning sevgi mavzusidagi she'rlari kitobxon qalbiga kirib boradigan she'rlardir. "O'sha muhabbat", "Bu ko'zlarmi yo ikki jodu", "Shu xolni ham…", "Topindik, rad etdik", "Men sehrli yurak bilan…", "O'ylamasdan qo'ydikmi qadam", "Bu ko'zlaring", "Bilmadi" kabi she'rlarda yordan minnatdorlik, yor jafosiga chidash, sevgiga sadoqat, vafo, hijron alamlarini boshdan kechirgan, hayot achchiqlariga chidash bergan ayolning tuyg'ulari ifodalanadi".[3]

Tilshunos olimaning ushbu xulosalari bevosita she'riy matnlarning semantik va g'oyaviy tahliliga asoslangan. Malika Mirzo qizi she'rlari matnida asosiy o'zak sifatida qo'llangan "jafoga chidash", "sadoqat", "vafo", "hijron" kabi leksik birliklar shunchaki hissiyot ifodasi emas. Bu lisoniy birliklar poetik matn ichida sharq ayolining ruhiy chidamliligi, sadoqati, ma'naviy matonati kabi ulkan tushunchalarni o'zida tashiydigan lingvokulturologik birliklar sifatida faollashadi. Olimaning fikrini ixchamlashtirib aytish mumkinki, shoira lirik qahramonning ichki kechinmalarini o'quvchiga ko'rsatishda ekspressiv-emotsional fe'llar va ruhiy iztirobni ifodalovchi badiiy ko'chimlardan nihoyatda ustalik bilan foydalangan. Bu esa yaratilgan poetik matnning pragmatik ta'sir quvvatini, ya'ni haqiqatdan ham "kitobxon qalbiga kirib borishini" lingvistik jihatdan ta'minlagan.

Bunga misol tariqasida shoiraning lirik qahramoni niyatidagi hissiy portlash va estetik iztirobni ifodalovchi quyidagi she'riy parchani keltirish mumkin:

"Men soldim yurakni har ne baloga,
Bir sevgi yodida kuyardi bag'rim.
U qiyo boqmadi men mubtaloga
Yurakka yopishdi ishqim va qahrim,
Ohimdan yonardi yurak charsillab,
Hislarim sabrimga bermasdi to'zim,
Uning suratini chizardim yillab,
Suratga aylanib qolardim o'zim."[4]

Ushbu parcha lirik qahramonning ruhiy iztirobi, sevgidan chekkan azobi va o'zlikning ishq vositasida sinishini lisoniy vositalar orqali yuqori estetik kuch bilan ifodalagan. "Yurakka yopishdi ishqim va qahrim" misrasida "ishq" va "qahr" tushunchalarining yonma-yon qo'llanishi lirik qahramon ruhiyatidagi o'zaro qarama-qarshi, ziddiyatli tuyg'ular kurashini beradi. "Yurakni baloga solmoq", "bag'ir kuyishi", "ohdan yurak charsillab yonishi" kabi metaforik va simvolik birikmalar his-tuyg'uning maksimal darajadagi emotsional bosimini aks ettiradi. "… yonardi yurak charsillab" birikmasidagi "charsillab" taqlid so'zi emotsional-ekspressiv bo'yoqni oshirib, yurakning yonish jarayonini kitobxonga eshitiladigan, his qiladigan darajada gavdalantiradi. She'rning so'nggi ikki misrasi – "Uning suratini chizardim yillab, / Suratga aylanib qolardim o'zim" – lirik ahramon kognitiv holatining poetik xulosasidir. Bu o'rinda "surat" so'zining takrorlanishi oshiqning ma'shuqaga to'liq singishini hamda ruhiy statik holatga kelib qolganini ko'rsatuvchi lingvo-estetik vositadir. Umuman olganda, parcha lingvopoetik nuqtayi nazardan emotsional-ekspressiv so'zlar, taqlidiy birliklar va ziddiyatli semantik qurilmalarning o'zaro estetik uyg'unligiga asoslangan bo'lib, lirik qahramonning ichki iztiroblarini to'liq namoyon etadi.

Badiiy asarda, xususan, lirik turning ixcham va tig'iz tabiatida har bir so'z, hatto alohida olib qaralgan tovush ham ma'lum bir ma'noviy va estetik mas'uliyatni o'z bo'yniga oladi. Shoira Malika Mirzo qizi she'rlarida ham so'zlar lug'atda belgilangan dastlabki (nominativ) ma'nosi bilan cheklanib qolmay, matn ichida yangi-yangi qo'himcha ma'no (kontekstual-konnotativ sema) qatlamlarini kashf etadi. Fikrimiz dalili va amaliy

[3]Малика Мирзо қизи. Лутфона битиклар, Тошкент, Академнашр. 2019, 15-16-бетлар
[4]Малика Мирзо қизи. Лутфона битиклар, Тошкент, Академнашр. 2019, 16-бет

isboti sifatida shoira qalamiga mansub quyidagi parchani lingvopoetik tahlilga tortamiz:

Sukut saqlab turar chinorlar,
Unsizgina so‘ylashar balki.
Go‘yo sukut saqlaydi chollar,
O‘tganlarni o‘ylashar balki…
Shivirlashib turar chinorlar –
O‘z tilida ertaklar to‘qib.
Gurunglashib turganday chollar
Buguniga shukrona o‘qib.[5]

Ushbu parchada lisoniy vositalarning matniy vazifadorligi va poetik ta’sirchanligi quyidagi til sathlarida namoyon bo‘ladi:

- Fonetik va leksik sath. Shoira she’r matnida “shivir-shivir” tovushga taqlid so‘zidan yasalgan “shivirlashib” fe’li hamda “unsizgina”, “sukut” kabi leksik birliklarni o‘zaro moslab qo‘llash orqali akustik (eshitiluvchi) matn muhitini yaratgan. Keyingi to‘rtlikda “so‘ylashar” fe’li o‘rnini “gurunglashib”, “ertak to‘qib” kabi ma’no doirasi keng hamda uslubiy bo‘yoqdor so‘zlarning egallashi matnda tushunchalarning bosqichma-bosqich konkretlashuvini va ma’no o‘sishini ta’minlagan.
- Morfologik sath. She’rda fe’llarning ravishdosh va ko‘makchi fe’lli birikmalar vositasida davomiylik nisbatida (“sukut saqlab turar”, “shivirlashib turar”, “gurunglashib turganday”) berilishi tasvirlanayotgan harakat va holatning uzluksiz lisoniy jarayon ekanini ko‘rsatadi. “Balki” modal so‘zining izchil takrorlanishi esa tasdiq mazmunidagi gaplarga gumon-isbot tusini bag‘ishlab, gaplarning modallik darajasi va ta’sir kuchini oshirgan.
- Sintaktik sath. Birinchi to‘rtlikdagi “unsizgina so‘ylashar” birikmsida o‘zaro ziddiyatli semaga ega bo‘lgan birliklar jipslashtirilib, g‘ayriodatiy sintagmatik zanjir (oksyumoronik birikuv) shakllantirilgan. Ikki to‘rtlik o‘rtasida “sukut saqlab turar chinorlar // go‘yo sukut saqlaydi chollar” hamda “shivirlashib turar chinorlar // gurunglashib turganday chollar” shaklida sintaktik parallelizm hosil qilingan.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Malika Mirzo qizi she’riyatida har bir til birligi quruq grammatik shakl emas, balki muallifning o‘xshashi yo‘q badiiy tafakkurini, milliy tilimizning cheksiz ma’no va tasviriy imkoniyatlarini namoyon etuvchi asosiy vositadir.

Xulosa.

Mustaqillik davri o‘zbek she’riyatida, xususan, Malika Mirzo qizi ijodida o‘zbek tilining jozibasi, ifodaliligi, ohangdorligi va har bir so‘z yoki jumlaning turfa xildagi tovlanishlari hissiy ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi, o‘quvchini o‘ziga tortadi va chuqur fikr yuritishga undaydi. Shunday ekan, voqelikni badiiy aks ettirishda ijodkor mahoratining lisoniy omillarini, so‘z tanlash tamoyillarini hamda milliy til imkoniyatlarining badiiy-estetik namoyon bo‘lish shakllarini tadqiq etish zamonaviy o‘zbek lingvopoetikasining eng dolzarb va ustuvor masalalaridan biri hisoblanadi. Zero, har bir nodir iste’dodning til materialiga ishlov berish va poetik vositalarni muayyan tartibga solish usullari milliy adabiy tilning rivojlanish chegarasini kengaytiradi va uning ifoda boyligini boyitadi. Malika Mirzo qizi asarlarini lingvopoetik yo‘nalishda tizimli va atroflicha izchil tadqiq etish nafaqat shoiraning o‘ziga xos individual uslubini, so‘z ustidagi yuksak mahoratini va lirik qahramon ruhiyatini lisoniy vositalar orqali gavdalantirish mahoratini xolis baholashga, balki umuman bugungi zamonaviy o‘zbek badiiy nutqi va she’riy tili taraqqiyotining yetakchi tamoyillarini, ma’noviy-tasviriylik imkoniyatlarini va poetik sintaksis rivojini belgilashga ham munosib ilmiy-amaliy hissa bo‘lib qo‘shiladi. Shu bilan birga ushbu ilmiy izlanish natijalari milliy tilshunosligimizda badiiy matnni tizimli va sathlararo tahlil qilish metodologiyasini takomillashtirishda hamda uslubiyat va lingvopoetikaga oid ilmiy manbalar bazasini boyitishda muhim poydevor vazifasini o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[5]Малика Мирзо қизи. Юлдузлар хаёли, Тошкент, Turon zamin ziyo. 2015, 22-бет

1. Т. Қурбонов. Тарихий бадиий асар ва давр тили масалалари. Монография. – Тошкент: збекистон Миллий энциклопедияси, 2006. 14-бет
2. Малика Мирзо қизи. Лутфона битиклар, Тошкент,Академнашр. 2019, 3-бет
3. Малика Мирзо қизи. Юлдузлар хаёли, Тошкент, Turon zamin ziyo. 2015, 22-бет